

Rangli bo'rlar bilan chizamiz



Rangli bo'rlar ijod uchun yorqin va qulay material bo'lib, ular yordamida qog'oz, karton va hatto doskada ham rasm chizish mumkin. Ular o'zidan yumshoq va qalin iz qoldirishi bois ifodali, jonli rasmlarni tasvirlashda juda mos keladi.

Rangli bo'rlarning asosiy xususiyati shundaki, ular yordamida turlicha: yengil va nafis yoki yorqin va dadil chizish mumkin. Ranglarni barmoq bilan ishqalab yoyish, ularni qatlam-qatlam qilib surtish va hatto ustki qatlamni tirnab, yangicha effektlar – taassurotlar yaratish mumkin.

Bo'rlarning qanday turlari bor?



Mumli bo'rlar – qattiq va silliq bo'ladi. Rasmlarni toza-ozoda va aniq qilib chizish uchun juda mos. Ular uvalanib ketmaydi, qo'lni iflos qilmaydi, qog'ozda esa yengil surkaladi.

Pastel bo'rlar (yog'li yoki quruq pastel) yumshoq, baxmalga o'xshash mayin bo'lib, osongina iz qoldiradi. Ularni barmoq yoki paxtali cho'p bilan surkash, o'zaro aralashtirish va bir rangdan boshqa rangga silliqqina o'tkazish mumkin. Ular biroz uvalansa-da, biroq juda ifodali effekt, ya'ni ko'rinish beradi.



1. Mumli bo'rlar nimasi bilan pastel bo'rlardan farq qiladi?
2. Sizningcha, qanday rasm uchun pastel, qanday rasm uchun esa mumli bo'rlar ko'proq mos keladi?



Rangli bo'rlar bilan **mushukcha** rasmini chizing.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Varaq o'rtasidan sal pastroqda **yotiq chiziq** o'tkazing.
2. **Mushukchani konturini chizib oling**: boshi – doira, tanasi – oval, dumi – yoy shaklida bo'lsin.
3. Mushukchangiz **qanday rangda bo'lishini tanlang**. Uni mumli bo'rlar bilan bo'yang.
4. Qisqa chiziqlar bilan **uning yungini hosil qiling**.
5. **Fonlarni bezating**: qizil, sariq, olovrang va jigarrang barglar chizing.

